

ALOHIDA TOIFADAGI HUDUDLARDA XIZMAT OLIB BORISHDA PROFILAKTIKA INSPEKTORINING KASBIY MAHORATI

Ibodullayeva Zumrad Ibodullayevna

Ichki ishlar Akademiyasi 3-o'quv kursi 311-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali mualif alohida toifalangan hududlar (olis qishloq hududlari, ovullar, chegara hududlar, cho'l hududlari), ushbu hududlarda xizmat olib borishning o'ziga xos xususiyatlari, mazkur toifadagi hududlarda xizmat olib boradigan profilaktika inspektorlarining kasbiy mahorati va kasb madaniyati, xizmat jarayonida vujudga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarining ilmiy tahliliga to'xtalib o'tgan.

Kalit so'zlar: Alohida toifalangan hudud (olis qishloq hududlari, ovullar, chegara hududlar, cho'l hududlari), profilaktika inspektorining kasb mahorati, profilaktika inspektorining kasb madaniyati, kasbiy mahoratni oshirish sirlari, kasbiy madaniyatni yuksaltirish.

Аннотация: Посредством данной статьи автор описывает особо отнесенные территории (отдаленные сельские местности, села, приграничные территории, пустынные местности), особенности оказания услуг на этих территориях, профессиональные навыки и профессиональную культуру инспекторов профилактической службы, оказывающих услуги в данных категориях территорий, в процесс обслуживания коснулся научного анализа путей устранения возникающих недостатков.

Ключевые слова: Отдельно выделяемая территория (отдаленные сельские местности, сельские местности, пограничные районы, пустынные местности), профессиональные навыки инспектора профилактической службы, профессиональная культура инспектора профилактической службы, секреты повышения квалификации, повышение профессиональной культуры

Annotation: Through this article, the author describes specially classified areas (remote rural areas, villages, border areas, desert areas), specific features of providing services in these areas, professional skills and professional culture of preventive inspectors providing services in these categories of areas, in the process of service touched on the scientific analysis of the ways to eliminate the shortcomings that arise.

Key words: Separately classified area (remote rural areas, rural areas, border areas, desert areas), professional skills of the preventive inspector,

professional culture of the preventive inspector, secrets of improving professional skills, improving professional culture

Alohida toifalangan hududlarda xizmat olib borishda profilaktika inspektoridan alohida kasbiy mahorat va mukammal bilim, shu bilan birgalikda kasbiy professionallik ham talab etiladi. Alohida toifalangan hududlarda xizmat vazifasini bajarayotgan profilaktika inspektori avvalo muhitga tez moslashuvchan, mavsumiy huquqbazarliklar tasnifi va to'g'ri kvalifikatsiyani amalga oshirish salohiyatiga ega bo'lishi zarur. Shu bilan birgalikda alohida toifadagi hududlarda oila-turmush sohasidagi jinoyatlar ham kriminogen tahlilda asosiy o'rinni egallaydi.

Mazkur toifadagi hududlarda xizmat olib borishning o'ziga yarasha mas'uliyatli tomonlari ham mavjud, albatta. Boisi, olis qishloq hududlari va chegara hududlarida shahar hududlaridan farqli o'laroq ayrim toifadagi huquqbazarliklar hisoblanmish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini talon-taroj qilish kabi mavsumiy huquqbazarliklar yoki qishloq xo'jaligida yer unumdarligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan mineral o'g'itlarni o'g'irlash, talon-taroj qilish kabi huquqbazarliklar olis qishloq hududlarida ko'proq uchrab tursa, chegara hududlarda esa O'zbekiston respublikasi hududdiga noqonuniy yo'llar orqali kirib kelishga urinish, O'zbekiston chegarasini noqonuniy kesib o'tish, turli xil narkotik moddalarni yoki olib kelinishi va chegaradan o'tkazilishi ta'qiqlangan mahsulotlarni chegaradan olib o'tish qoidalalarini buzgan holda O'zbekiston hududiga olib kirishga urinish ya'ni kontrabanda, aylanma yo'llar orqali O'zbekiston hududidan chiqib ketish yoxud respublika hududiga kirib kelish kabi kabi jinoyatlar aynan alohida toifadagi hududlarda uchrashini statistik ma'lumotlar ko'rsatadi.

Shu o'rinda huquqbazarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarining eng muhim vazifasi sifatida belgilab o'tilganligiga e'tibor qaratish o'rinni bo'ladi:

birinchi — huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalarining respublika, o'rta va quiy pog'onalar faoliyatining sifat jihatidan yangi tartibini o'rnatish, bunda ularning asosiy vazifalari, funksiyalari hamda javobgarligini aniq belgilash va chegaralash, profilaktika inspektorlari zimmasiga ular faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'ymaslik;

ikkinchi — profilaktika ishini aholi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikda tashkil etish, ushbu ishni, birinchi navbatda, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishni ta'minlashga, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga,

fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirishga qaratish;

uchinchi — voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash tizimini ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, o'sib kelayotgan yosh avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan holda rivojlantirish;

to'rtinchi — profilaktika inspektorlarining zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarning talab darajasida bajarilishi uchun shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shu jumladan o'zlarining faoliyati haqida jamoatchilik oldida tizimli ravishda hisobot berishlarini yo'lga qo'yish, ularning aholini tashvishga solayotgan muammolarga yuzaki munosabatda bo'lish holatlariga chek qo'yish;

beshinchi — profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini baholashning ta'sirchan mezonlarini joriy etish, bunda, birinchi navbatda jamoatchilik fikri, ularning faoliyati natijalaridan fuqarolarning qanoatlanishi hamda aholi bilan hamkorlik darajasini hisobga olish;

oltinchi — ushbu sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, profilaktika inspektorlarining bilim darajasi va kasbiy tayyorgarligini oshirish, ular uchun munosib ish sharoitlarini yaratish, ularni bevosita o'zlariga biriktirilgan hududda xizmat turar joyi bilan ta'minlash, zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish natijadorligi uchun moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

Kasbiy malaka va ko'nikmani oshirishda asosan nimalarga e'tibor qaratish zarur hisoblanadi?

Profilaktika inspektorlarining bugungi qiyofasi ham kechayotgan islohotlar bilan hamohang bo'lishi, faoliyatida yangilik va zamonaviylik aks etishini taqozo qiladi. Har qanday yangilik va zamonaviy yondashuvning pirovard maqsadi xalqimiz og'irini yengil qilishga qaratilgan. Shu bois, bugungi kunda profilaktika inspektorining zamonaviy qiyofasini yaratish, uni yangi O'zbekistonga xos kadr sifatida shakllantirish ayni vaqt dagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Profilaktika inspektorining kasbiy malaka va ko'nikmasini oshirishda asosiy e'tibor uning kundalik faoliyatida fidoyilik, sadoqat va odillik tamoyillari ustuvorligini qay darajada ta'minlayotganiga qaratilishi muhim o'rin tutadi. Shuningdek, uning shaxsida namunaviy xulq-atvor, vazminlik, mushohadalik, bag'rikenglik, olijanoblik, halollik kabi tuyg'ular mukammal shakllanishi lozim. Shaxsiy jihatlarning sifati va samaradorligi profilaktika inspektorida keng dunyoqarash va teran fikrlash qobiliyatining shakllanganlik darajasiga

bog'liq. Mas'uliyat va o'z yurtidan ma'naviy qarzdorlik tuyg'usi ish faoliyatida qat'iyilik va sadoqat fazilatlarini shakllantiradi. Eng muhimi, profilaktika inspektorining o'z xalqini sevishi va unga mehr qo'yishi aholining dardu tashvishlari bilan yashash tuyg'usini vujudga keltiradi. Shu bois, qayd etilgan shaxsiy fazilatlar zamonaviy profilaktika inspektori qiyofasini yaratishga muhim poydevor vazifasini o'taydi.

Zamonaviylik, avvalo, amalga oshirilayotgan islohotlar va voqeahodisalardan xabardorlik, daxldorlik va oqilona munosabat bildira olishda namoyon bo'ladi. Innovatsion bilim va ko'nikmalar shakllanganligi, o'z kasbiy malakasini mustaqil rivojlantira olish qobiliyatiga egaligi, ish faoliyatida ilg'or axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalana olishi, zamonaviy etika qoidalaridan xabardorligi, xorijiy tillarni o'zlashtirganligi, kommunikativlik, ommaviy axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmasi, xalq bilan muloqot qilishning yangi usul va shakllarini bilishi, kasbiy sohasi va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan muntazam xabardorligi kabi jihatlarda o'z ifodasini topadi.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak alohida toifalangan hududlar sirasiga olis qishloq hududlari, chegara hududlari shu bilan birgalikda cho'l hududlaridagi qishloqlarda xizmat vazifasini olib borayotgan profilaktika inspektorlarining faoliyatiga ham zamonaviy metodlarni tadbiq etgan holda yangi ilmiy texnologiyalarni joriy etishimiz lozim bo'ladi. Bu esa o'z o'mida, albatta, olis qishloq hududlari, cho'l hududlari, ovullar va chegara hududlarida profilaktika inspektorining o'z ish faoliyatini samarali tarzda amalga oshirish imkonini yaratadi degan fikrdamiz.

Alohida toifalangan hududlarda xizmat olib borayotgan profilaktika inspektorining kasbiy madaniyati bu, albatta, uning o'z xizmat sohasidagi farmon, farmoyish, qaror va buyruqlarni shu bilan birgalikda barcha qonun va qonunosti normativ huquqiy hujjatlar va aktlarni bilishi, o'z vaqtida o'qib o'zlashtirishi va amaliyotga tadbiq eta olishi zarurligi, qolaversa o'z xizmat hududida tashkiliy-huquqiy jihatdan aholi farovonligini ta'minlash yo'lida zarur chora-tadbirlar ko'rishi desak adashmagan bo'lamic.

Kasbiy mahorat esa albatta yillar mobaynida shakkalanadigan tajriba evaziga vujudga keladi. Kasbiy mahorat jihatidan ichki ishlar organlarida xizmat olib boradigan xodimlar uch toifaga ajratiladi. Bular, yosh xodimlar ya'ni ish tajribasiga ega bo'Imagan ichki ishlar organlarida besh yilgacha xizmat faoliyatini o'tagan xodimlar hisoblansa, ikkinchi toifa xodimlar esa ichki ishlar organlaridashaxsiy tajribasini orttirgan xodimlar hisoblanib, ular ushbu sohada o'n yildan o'n besh yilgacha muddat oralig'ida xizmat faoliyatini o'tagan xodimlar hisoblanadi. Uchinchi toifa xodimlar esa o'n

besh yildan ortiq muddat sohada ishlab anchagina tajriba orttirgan,bilim, ko'nikma vca malakasi jihatidan yosh kadrlarga o'rnak bo'la oladigan kasb fidoiylari hoisoblanadi.

Alohibda toifalangan hududlarda xizmat faoliyatini amalga oshiradigan profilaktika inspektorlari xizmat intizomiga rioya qilgan holda o'z xizmat faoliyatini sohadagi qonunlar va qonunosti normativ aktlar, II Vning buyruq va ko'rsatmalari asosida amalga oshirishlari ushbu hududlarda huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish bilan birgalikda samarali tarzda profilaktikasini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston respublikasi prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklarlar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2896-son qarori.

Toshkent shahar., 2017-yil 18-aprel, PQ-2896-son.

2. Vazirlar mahkamasining 2019-yil 26-martdagi "Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlarining ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 251-son qarori.

Toshkent shahar., 2019-yil 26-mart.